

TARBIYALANUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR Erhanova Nasiba Absayitovna

MTTDMQTMO instituti
dotsent v.b. p.f.f.d. (PhD),

Dunyoda ro'y berayotgan texnologik taraqqiyot fonida bolalarning nutqiy faolligi pasayish muammosi dolzarb bo'lib bormoqda. Ilmiy bashoratlarga ko'ra nutqi ravon, fikrlarini dadil bildiradigan mutaxassislar yaqin kelajakda eng ko'p talabga ega bo'ladi. Zamonaviy dunyoda jamiyatda o'z o'rnini topadigan, fikrlarini erkin bayon etadigan, tashabbuskor va mustaqil fikrli shaxslarga ehtiyoj ortayotganini kuzatib turibmiz. Bunday avlodni shakllantirish strategiyasini esa maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlash vazifasi dolzarbdir.

Shunday ekan, nutq o'stirish jarayonida tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish masalasi aktualdir. Bu boradagi xorij tajribasini o'rganganimizda ham mazkur doiradagi ishlar dolzarbligini kuzatdik. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarning til va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qilgan LENA (Language Environment Analysis) loyihasi aynan bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu loyihaga bo'lgan ehtiyoj tufayli bugungi kunda butun dunyo LENA loyihasi asosida bolalarni faol muloqotga o'rgatish texnologiyalariga murojaat qiladi. Loyihaning regional kengayishi va rivojlanishi natijasida bolalarning muloqot ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan akademik amaliyotlar global sa'y-harakatlarga aylanganini aytib o'tish joiz.

O'zbekiston Respublikasi hukumating maktabgacha ta'limga qaratayotgan e'tibori va sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar ta'limiy jarayonlarga ham zamonaviy yondashuvlarni taqozo etmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar yangi O'zbekistonda olib borilayotgan izchil o'zgarishlar tendensiyasida alohida o'rin tutishi, sohaga innovasion ta'lim tamoyillarini tatbiq qilish zarurati yaqqol ko'zga tashlanmoqda. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning to'laqonli ta'lim-tarbiya olishini ta'minlash masalasiga yangi zamon fokusi va rakursida hal etiladigan dolzarb vazifa sifatida qaralishi sohada qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalarini ham modernizatsiya qilish talabini vujudga keltirdi. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishga qaratilgan ta'limiy resurslarni uzluksiz ravishda yangilash va takomillashtirish ehtiyoji mavjud.

Sababi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning nutqiy faolligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Chunki, bir qator kompetensiyalar qatorida nutq va muloqot ko'nikmalari rivojlangan bolagina maktab ta'limiga tayyor hisoblanadi. Aynan mazkur kompetensiya O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti", "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida tarbiyalanuvchilarda faol rivojlantirilishi zarurligi belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amaliyotda to'laqonli bajarish va innovatsion texnologiyalardan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy faolligini oshirishning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda, ammo hamma amaliyotchilar ham ta'limiy jarayonda undan to'g'ri foydalana olmaydilar. Bolalarning rivojlanishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, nutqiy faollik noan'anaviy ta'lim sharoitida boshqa faoliyat turlariga qaraganda samaraliroq rivojlanadi, shuning uchun tarbiyalanuvchilarni keng nutqiy faoliyatga kirishishga undaydigan ta'lim resurslarini zamonaviy pedtexnologiyalar asosida o'rgatish metodikasiga tayanish tarbiyalanuvchilar nutqini rivojlantirishdagi eng muhim usul hisoblanadi.

An'anaga ko'ra, nutqni rivojlantirish bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida takroriy mashqlar va eslab qolish kabi usullarga tayanilgan. Ushbu yondashuvlar ma'lum darajada samarali bo'lsada, ular bugungi kun bolalarining dinamik ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. An'anaviy usullarning cheklovlari texnologiya va interfaol ta'limni o'z ichiga olgan zamonaviy texnikalarning integratsiyalashuviga yo'l ochadi.

Ushbularni inobatga olgan holda biz tadqiqotimiz davomida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi yondashuvlar samarali degan to'xtamga keldik:

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

- Har bir bolaning individual nutqiy rivojlanish xususiyatlari, muloqotchanlik darajasi va qiziqishlarini hisobga olishni nazarda tutadi.
- Bolaning nutqiy salohiyatini namoyon qilishiga yordam beradigan topshiriqlar va o'yinlar qo'llaniladi.

2. O'yinli-ta'limiy yondashuv

- Nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik o'yinlardan foydalanishga asoslanadi.
- O'yinlarning ko'rgazmali-bosma hamda elektron resurs shaklidan foydalanishga ustuvorlik beriladi.

3. Muloqotga yo'naltirilgan yondashuv

- Bolaning muloqot vaziyatlarida nutqni faol qo'llashiga imkon beruvchi ta'limiy muhit yaratishga e'tibor qaratiladi.
- Faol muloqot uchun simulyatsion jarayon tashkil etilishi nazarda tutiladi va bolalarni nutq bilan bog'liq faoliyatga jalb qilishga asoslangan hikoya qilish, qayta hikoya qilish, she'rni yod aytish badiiy-estetik faoliyat bilan uzviy ravishda olib borish nazarda tutiladi.

4. Texnologik yondashuv

- Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, masalan, multimediali ta'limiy resurslar, audioertaklar, audiovizual vositalar va interaktiv o'yinlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.
- Nutqni rivojlantirishga kompleks ta'sir ko'rsatish uchun turli metod va faoliyat turlarini birlashtiradi.

Mazkur yondashuvlar tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlariga ko'ra nutqiy ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Berdaliev G. "Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish tizimi". // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. – 2019.

3. N.A.Erhanova, "Tarbiyachi kitobi Nutq o'stirish" metodik qo'llanma, "Davriy press" nashriyot-matbaa uyi, Toshkent – 2023.

4. Moraru A. "Maktabgacha ta'lim muassasasida tashkiliy rivojlanish dasturi", Ruminiya, WCES, 2020.

5. Abdullayeva N.Sh. The role of modeling in the development of coherent speech of senior preschoolers// International journal of multidisciplinary research and analysis ISSN(print): 2643-9840, ISSN(online): 2643-9875 Volume 03 Issue 12 December 2020 DOI: 10.47191/ijmra/v3-i12-09, Impact Factor: 5.522 Page No.- 321-323